



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

2018 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda 107 333,0 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 60,7%i yoki 65142,4 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 39,3 %i yoki 42190,6 mlrd. so`m moliyalashtirildi.


Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 8,6 % punktga ko`payib, 32,1% ni yoki 34448,4 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`tgan yilga nisbatan : 118,1 %

**Asosiy kapitalga
investitsiyalar hajmi
107333,0 mlrd. so`m**

**Markazlashgan
investitsiyalar hisobidan:
34 448,4 mlrd.so`m**

**Markazlashmagan
investitsiyalar hisobidan:
72 884,6 mlrd.so`m**





Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 8,6 % punktga kamayib, 67,9%ni yoki 72 884,6 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korhona va tashkilotlar mablag`i ulushi salmoqli bo`ldi – 30 062,9 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,0 %i. Aholi mablag`lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 11,3 %i yoki 12 127,8 mlrd.so`m o`zlashtirildi.

Joriy davrda O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan o`zlashtirilgan investitsiyalar hajmi jadal o`sib 16689,6 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-sentyabr davridagi jami asosiy kapitaldagi ulushiga nisbatan 9,1 % punktiga ko`payib 15,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 16033,5 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 14,9 %ini tashkil etib, o`tgan chorakdagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktiga kamayish kuzatildi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 14660,4 mlrd.so`m (13,7 % va 5,0 % punktiga kamayish), Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 7894,8 (7,4 % va 0,9 % punktiga kamayish), Respublika byudjeti 4124,1 mlrd.so`m (3,8 % va 1,3 % puktiga kamayish), Davlat maqsadli jamg`armalari 5468,7 (5,1 % va 1,6 % punktiga ko`payish) va Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 271,2 mlrd.so`m (0,3 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.





Asosiy kapitalga investitsiyalar oʻsish suratlari moliyalashtirish mabalarini boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan oʻzlashtirilgan investitsiyalarda kuzatildi – oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 marta oʻsish. Bu MChJ shaklidagi “Oʻzbekiston GTL” qoʻshma korxonasi tomonidan Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilgʻi ishlab chiqarishni tashkil etish, Toʻraqoʻrgʻon IESda umumiy quvvati 900 MVt boʻlgan ikki 450 MVt quvvatli bugʻ gaz qurilmali blokdan iborat yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi, Taxiatoş IESda 230-280 MVT quvvatli ikki bugʻ gaz qurilmasi qurilishi, Navoiy IESda 450 MVt quvvatli ikkinchi bugʻ gaz qurilmasini qurish orqali kengaytirish, “Oʻzelektrtarmoq” UK tomonidan energotizim podstansiyalarida eskirgan asbob-uskunalarni almashtirish va modernizatsiya qilish, “Navoiyazot” AJda polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal olib borilayotgani bilan bogʻliq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo'yicha tarkibi

	mlrd.so'm	o'sish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	107333,0	118,1	100,0
Republika byudjeti	4121,1	88,7	3,8
Davlat maqsadli jamg'armalari	5468,7	170,6	5,1
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	271,2	129,0	0,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	7894,8	103,7	7,4
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	16689,6	2,8 m	15,5
Korhona mablag'lari	30062,9	106,5	28,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	16033,5	131,3	14,9
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	14660,4	85,8	13,7
Aholi mablag'i	12127,8	104,1	11,3

Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so`m	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo`yicha (<i>jamiga nisbatan % da</i>):							
		Respublika byudjeti	Korxon va tashkilotlarning o`z mablag`lari	Aholining o`z mablag`lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Davlat maqsadli jamg`armalari	Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	Boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari
Qoraqalpog`iston Respublikasi	6046,4	2,8	28,6	9,3	25,0	7,8	0,4	16,1	10,0
viloyatlar:									
Andijon	4056,0	3,9	24,1	24,3	21,7	7,0	0,6	-	18,4
Buxoro	7846,1	3,0	15,4	13,8	53,4	4,5	0,5	-	9,4
Jizzax	3169,2	9,4	26,4	14,5	12,4	10,5	0,4	-	26,4
Qashqadaryo	15321,1	1,4	23,3	7,1	54,4	2,6	0,3	4,5	6,4
Navoiy	10059,1	0,8	31,5	6,7	36,4	1,7	-	17,3	5,6
Namangan	7131,0	2,8	13,5	13,1	39,6	4,7	0,1	15,5	10,7
Samarqand	5746,9	3,0	28,8	27,8	6,7	9,2	0,1	-	24,4
Surhondaryo	6111,0	3,1	20,7	13,5	29,3	8,3	0,2	5,4	19,5
Sirdaryo	2154,6	10,1	27,8	6,6	12,1	11,0	0,7	-	31,7
Toshkent	9351,4	3,6	29,2	10,7	18,8	5,7	0,1	12,1	19,8
Farg`ona	4978,4	2,8	28,1	18,1	25,1	7,0	0,9	-	18,0
Xorazm	2980,0	4,8	32,8	22,2	11,9	10,5	0,5	1,6	15,7
Toshkent sh.	21861,5	4,9	40,9	5,6	17,2	2,9	0,1	8,6	19,8




Hudular kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati 84.6 %ga ko'payish Navoiy viloyatida kuzatildi. Bu asosan qimmatli metal konlarini o'zlashtirish bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq.

Namangan viloyatining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 171,2 % o'sishi To'raqo'rg'on tumanida issiqlik elektr stansiyasi qurilish bilan bog'liq.

Jizzax viloyatida ham o'tgan davrlarga nisbatan investitsion faollik yuqori darajada oshib, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarga xizmat ko'rsatish, sport, dam olish va ko'ngil ochishni tashkil etish sohasidagi faoliyat kabilarda o'zlashtirilayotgan investitsiyalar ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 155,9 % bo'lishini ta'minladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish suratlari




Buxoro viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻtgan yilga nisbatan keskin tushishi - 50,4 %. Bu albatta oʻtgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilishi boʻyicha investitsiyalarning katta boʻlgani bilan izohlanadi.

Jami asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi boʻyicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,4 %i oʻzlashtirildi.

Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ham katta hajmdagi investitsiyalar oʻzlashtirilib, Respublika boʻyicha jami investitsiyalar hajmidagi ulushi mos ravishda 14,3 va 9,4 %ni tashkil etdi.

Xorazm hamda Jizzax viloyatlarida investitsiyalarning Respublikadagi ulushi 2,8 va 3,0 %ni tashkil etgan boʻlsa, Sirdaryoda bu koʻrsatkich boʻyicha eng kami boʻldi – 2,0 %.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida hududlarning ulushi:



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
texnologik tarkibi**



Qurilish-montaj ishlari:
49,7 %



Mashina, uskuna, inventar:
39,7 %



Boshqalar:
10,6 %


O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo`yicha 53294,2 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami investitsiyalarning 49,7%ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 42624,6 mlrd.so`m (jami investitsiyalarfagi ulushi 39,7 %) va boshqa xarajatlarga 11414,2 mlrd. so`m (10,6 %) o`zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaining ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Xorazm viloyatida kuzatildi – 69,7 %. Bu mazkur hududda dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarga xizmat ko`rsatish, transport, shahar joylarda turar joylar qurish kabi faoliyat turlarida jadal ishlar olib borilayotgani bilan izohlanadi.

Buxoro viloyatida Hauzak va Shadi konlarini o`zlashtirish, Qo`ng`irot

hududida geologiya qidiruv ishlarining olib borilishi natijasida ushbu hududdagi qurilish-montaj ishlari ulushining katta – 69,6 % bo`lishiga xizmat qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo`naltirildi. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 61093,8 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 57,0 %ini tashkil etdi.


Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 29326,5 mlrd.so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 27,3 %ini tashkil etdi. Qolgan 15,7 %, yani 16912,7 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.

Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Namangan viloyatida kuzatilib, u 76,8 %ni tashkil etdi. Bu Kandim konlar guruhini o`zlashtirish va gazni qayta ishlash kompleksining qurilishi bilan bevosita bog`liq.

Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Buxoro viloyatida 68,2 %, Navoiy viloyatida 66,7 %ni, Qashqadaryo viloyatida 71,7 %ni, Surxondaryo viloyatida 65,3 %ni tashkil etdi,

Bu ko'rsatkichning eng past darajasi hamon Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilmoqda va u 37,5 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida takror ishlab chiqarish tarkibi:



Mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini hamda boshqa soha obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya va texnik – tehnologik jihatidan qayta qurollantirishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori 45,1 % ko'rsatkich

Qoraqalpog`iston Respublikasida kuzatildi. Mazkur ko`rsatkichning eng past darajasi Qashqadaryoda kuzatilib, hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,7 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 23661,6 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 22,0 %i o`zlashtirilgan.


Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4 097,2 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,8 %);
- metallurgiya sanoati 4 299,8 mlrd.so`m (4,0 %);
- to`qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 4 636,6 mlrd.so`m (4,4 %).

Tog`-kon sanoatida 12253,9 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga

investitsiyalarning 11,4 %i o`zlashtirildi. Shundan 8871,7 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarning 8,3 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo`naltirilgan.

Ikki yetakchi tarmoq: qayta ishlash sanoati va turar joy qurilishiga investitsiyalarning hududlar bo`yicha tarkibi



Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqarishini tashkil etish bo`yicha qurilish ishlari, azot kislotasi ishlab chiqarishini tashkil etish, polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarishini tashkil etish, va boshqa ko`plab sohalarda katta hajmdagi investitsiyalarning o`zlashtirilishi sababli qayta ishlash sanoatining ushbu hududdagi ulushini katta bo`lishini ta`minladi. Qayta ishlash sanoati ushbu hududdagi jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 68,9%ini tashkil etdi.

Qayta ishlash sanoatiga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng past ko`rsatkich Qashqadaryo viloyatida kuzatilib, 3,1 %ni tashkil etdi. Bu mazkur hududda asosan tog`-kon sanoati, qazib chiqarish sohaslariga ko`proq investitsiyalar yo`naltirilayotgani bilan izohlanadi.



Xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
O`zbekiston Respublikasi	31 350,0	13 085,0	18 265,0	14 660,4	13 085,0	1 575,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 512,1	444,3	1 067,8	444,3	444,3	-
viloyatlar:						
Andijon	878,6	579,4	299,2	758,7	579,4	179,3
Buxoro	4 190,1	3 845,5	344,6	3 845,4	3 845,4	-
Jizzax	392,3	317,6	74,7	317,6	317,6	-
Qashqadaryo	8 339,2	1 503,7	6 835,5	1 503,7	1 503,7	-
Navoiy	3 662,1	90,3	3 571,8	123,7	90,3	33,4
Namangan	2 822,6	453,6	2 369,0	453,6	453,6	-
Samarqand	384,1	236,4	147,7	242,6	236,4	6,2
Surhondaryo	1 788,7	728,8	1 059,9	728,8	728,8	-
Sirdaryo	261,1	140,3	120,8	144,0	140,3	3,7
Toshkent	1 760,0	1 250,4	509,6	1 299,0	1 250,4	48,6
Farg`ona	1 250,3	1 030,9	219,4	1 136,0	1 031,0	105,0
Xorazm	355,5	152,7	202,8	152,7	152,7	-
Toshkent sh.	3 753,3	2 311,1	1 442,2	3 510,3	2 311,1	1 199,2

Joriy davrda 31350,0 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 29,2 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 13 085,0 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 18 265 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.


To`g`ridan - to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 14 660,4 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lib, undan 89,3 %i yoki 13 085,0 mlrd.so`m investitsiyalar va qolgan 10,7 %i yoki 1 575,4 mlrd.so`m kreditlarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish surati 136,6 %ni tashkil etdi.


O`shish suratlarini hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Navoiy viloyatida qayd etilganini ko`rish mumkin. Ushbu hududda xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 marttaga ko`paygan.

Eng past o`shish surati Buxoro viloyatida kuzatilib, u o`tgan yilning mos davriga nisbatan bor yo`g`i 36,6 %ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning o`shish suratlari (%da)



Jami xorijiy investitsiya va kreditlarda tarmoqlarning ulushi:



Elektr, gaz bilan ta'minlash faoliyati bo'yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 34,2 %i yoki 10 731,7 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lib, ular asosan yuqorida keltirib o'tilganidek 450 MVt quvvatli 2 bug-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari bilan bog'liqdir.

Qayta ishlash sanoatida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilib, jami 8352,1 mlrd.so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 26,6% %i o'zlashtirildi.

Tog'-kon sanoatida esa u 6159,3 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 19,6 %ni tashkil etdi. Bu Sho'rtan gaz-kimyo

majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyultirilgan yoqilg`l ishlab chiqarishni tashkil etish, Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi va boshqa investitsiyalari bilan bog`liq.

Obyektlarni ishga tushirish

Kasalxona, poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va boshqa tibbiy muassasalarni qurish va kapital rekonstruksiya qilish uchun 1 148,0 mlrd. so'm investitsiyalar o`zlashtirilib, sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalarning 42,3 %ini tashkil etdi.

Kasb-hunar kollejlarni qurish va rekonstruksiya qilishga 61,1 mlrd. so'm investitsiyalar o`zlashtirildi, bu ta`lim faoliyat turi bo'yicha jami investitsiyalarning 2,2 %ini tashkil etdi.

O'quv jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish va rekonstruksiya qilishda 627,4 mlrd. so'm yoki ta'lim sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 22,6 % investitsiyalar o'zlashtirildi,.



Oliy ta`lim muassasalari - **3978 o`quv o`rinlari**




umumiy va ixtisoslashtirilgan maktablar - **77436 o`quv o`rinlari**




Kasalxonalar - **6032 o'rin** ,
ambulator poliklinika muassasalari, - **19368 qatnov**

Umumta'lim maktablarini ishga tushirish




2018 yil yanvar-dekabr oylarida joriy etilgan umumta'lim maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar soni bo'yicha etakchi o'rinni Qashqadaryo viloyati 10421 ta, Samarqand viloyati esa 10016 ta Farg'ona viloyati - 9121 ta. Xorazm viloyati - 6777 ta, Buxoro viloyati - 5832 uch. Toshkent shahri - 5786 ta joy bilan egallashdi.

Foydalanishga topshirilgan turar-joylar uchun jami 17 695,8 mlrd. so'm yo'naltirilgan bo'lib, shundan, Respublika byudjeti hisobidan 454,1 mlrd. so'm, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasidan 35,1 mlrd. so'm, korhona va tashkilotlar o'z mablag'lari 218,3 mlrd. so'm, aholi mablag'lari 9 451,4 mlrd. so'm, chet el investitsiyalari va kreditlari 127,6 mlrd. so'm hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 7 341,3 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.



Turar joy qurilishi bo`yicha o`zlashtirilgan investitsiyalar




Joriy davrda 12 078,1 ming kv.m turar joylar foydalanishga topshirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,4 %ni, shundan, 10 370,3 ming kv.m yakka tartibda jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,9 %ni, namunaviy loyihalar asosida qurilgan va ishga tushirilgan maydon esa 1 653,7 ming kv.m va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,5 %ni tashkil etdi.

Foydalanishga topshirilgan turar-joy va yotoqxonalar qurilishi (yangi qurilish va rekonstruksiya)


	Uylar soni ming birlik	Umumiy maydoni, ming kv.m	2017 yilga nisbatan, %da
O'zbekiston Respublikasi	79,2	12 078,1	105,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5,8	812,6	115,8
Andijon	7,4	1 018,9	126,5
Buxoro	7,2	1 209,5	148,6
Jizzax	3,8	588,0	106,4
Qashqadaryo	7,2	1 137,2	96,4
Navoiy	2,8	668,0	104,8
Namangan	8,7	1 151,1	106,7
Samarqand	6,8	990,9	100,5
Surxondaryo	7,6	1 071,0	105,6
Sirdaryo	1,2	128,6	75,3
Toshkent	6,4	919,5	89,5
Farg'ona	8,0	1 086,8	137,0
Xorazm	4,0	700,9	79,6
Toshkent sh	2,3	576,7	70,8

Gaz tarmoqlari
(yangi qurilish va rekonstruksiya)
km



Gaz tarmog'iga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


Korhona va tashkilotlar
71,4 %



Aholi mablag'i
27,5 %

Moliyalashtirishning boshqa manbalari
1,1 %

Gaz tarmoqlari uchun jami 9,1 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, shundan, korhona va tashkilotlar 6,5 mlrd.so'm aholi mablag'laridan 2,5 mlrd.so'm moliyalashtirishning boshqa manbalaridan esa 0,1 mlrd so'm investitsiyalar yo'naltirildi,



Respublika bo'yicha 3951,4 km suv tarmoqlari o'tqazilgan bo'lib, jami 966,4 mlrd.so'm investitsiyalar yo'naltirildi, shundan 136,3 mlrd.so'm respublika byudjeti, 51,5 mlrd.so'm toza ichimlik suvi fondi, 12,9 aholi mablag'lari, 277,4 mlrd.so'm chet el investitsiyalari va kreditlari hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 482,8 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56